



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



“IMOM AL-BUXORIY MEROSI VA UNING BUGUNGI DAVRDAGI AHAMIYATI”

Ko'chimova Sevinch Keldibek qizi

Samarqand davlat chet tillari insituti

Ingliz tili filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti

Ingliz tili filologiyasi yo'nalishi 1-kurs talabasi

kochimovasevinch320@gmail.com

+998997546604

Annotatsiya: *Ushbu maqolada buyuk muhaddis va mutafakkir — Buxoro shahrida yashab, butun umrini ilm va hadis ilmini rivojlantirishga bag'ishlagan Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810–870-yillar)ning sharaflari hayot yo'li, ilmiy merosi hamda uning bugungi davrdagi ahamiyati yoritiladi. Maqolada Imom al-Buxoriyning eng mashhur asari — “Al-Jome' as-Sahih” (“Sahih al-Buxoriy”)ning yaratilish tarixi, tuzilishi hamda islom dunyosidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, Imom al-Buxoriyning asarlaridagi o'ziga xos, asrlar davomida charxlanib, o'z isbotini topib kelayotgan g'oyalari tahlil etiladi. Imom Buxoriyning merosi bugungi yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *hadis, “Al-Jome' as-Sahih”, islomga bag'ishlangan umr, sahih va nosahih hadislar, Imom al-Buxoriy merosi, ma'naviy tarbiya.*

“THE LEGACY OF IMAM AL-BUKHARI AND ITS SIGNIFICANCE IN THE MODERN ERA”

Abstract: *This article explores the life and scholarly legacy of the great hadith scholar and thinker, Imam al-Bukhari (810–870), who was born in Bukhara, Movarounnahr. It highlights his immense contribution to Islamic science and culture, particularly through his world-famous collection “Al-Jami' as-Sahih”. The paper also discusses the efforts made to preserve his memory, the establishment of research centers, museums, and international conferences held in his honor. Moreover, it emphasizes the significance of Imam al-Bukhari's works in today's spiritual, educational, and moral development.*

Keywords: *Imam al-Bukhari, hadith, Islam, heritage, science, spirituality, education.*

“НАСЛЕДИЕ ИМАМА АЛЬ-БУХАРИ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В СОВРЕМЕННУЮ ЭПОХУ”

Аннотация: *В данной статье освещается благородный жизненный путь, научное наследие и современное значение великого хадисоведа и мыслителя Абу Абдуллы Мухаммада ибн Исмаила аль-Бухари (810–870), посвятившего всю свою жизнь*





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



развитию исламских знаний и науки о хадисах в городе Бухара. В статье анализируется самое известное произведение Имама аль-Бухари — «Аль-Джами' ас-Сахих» (Сахих аль-Бухари), история его создания, структура и роль в исламском мире. Кроме того, рассматриваются уникальные идеи, изложенные в трудах Имама аль-Бухари, которые на протяжении веков сохраняют свою актуальность и значимость. Также рассматривается влияние его наследия на духовно-нравственное воспитание современной молодежи.

Ключевые слова: хадис, Аль-Джами' ас-Сахих, жизнь, посвящённая исламу, достоверные и недостоверные хадисы, наследие Имама аль-Бухари, духовное воспитание.

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy 810-yil 21-iyul (ba'zi manbalarda 20-iyul) kuni “Islom gumbazi” deb sharaflangan Buxoro shahrida tijoratchi oilasida tavallud topgan. Otasi Ismoil o'z davrining yetuk muhaddislaridan biri bo'lgan Molik ibn Anasning eng yaqin shogirdlaridan biri hisoblangan. Otasi ilmlilik va taqvosi bilan tanilgani sababli, oilada ilmiy va ma'rifiy suhbatlar ko'p bo'lgan. Buxoriy 5–6 yoshlarida otasidan yetim qoladi. Shu sababli u onasining g'amxo'rligi va tarbiyasi ostida voyaga yetadi. Imom Buxoriy nafaqat o'zining asarlari va yuksak qobilyati bilan balki hayot yo'li bilan ham ju da mashhur. Buxoriyning ko'zining ko'r bo'lib qolib, qancha davolar qilinsa ham shifo topmagan ko'zlari onasining tushiga Ibrohim Payg'ambar kirib unga shifo tilagach davo topishi haqidagi rivoyatlar nafaqat bizning yutimizda balki butun islom olamida mashhur rligi Buxoriyning o'ziga xos inson bo'lganini bildiradi. 16 yoshida u 1000 ga yaqin hadisni yoddan bilgan. Buxoriy shunchaki hadislarni yod olmas, balki ularni sahih (to'g'ri) va nosahih (noto'g'ri)ga ajrata olgan. 16 yoshidan boshlab xalifalikning turli shahar va viloyatlariga ilm talabida sayohat qiladi. 825-yilda Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan haj ibodatini ado etadi. Onasi va akasini Buxoroga qaytarib, o'zi Makkada qoladi. 827-yilda Madinaga borib, u yerda Ibrohim ibn al-Munzir, Mutrif ibn Abdulloh, Ibrohim ibn Hamsa kabi islom olamida tanilgan olimlar bilan uchrashib, hadis ilmini o'rganadi. Ilmni yanada chuqurroq o'rganish uchun u 6 yil davomida Madina, Toif, Hijoz, Makka, Jidda kabi shaharlar, shuningdek, Basra, Xuroson, Marv, Shom, Kufa, Bag'dod, Misr, Balx, Hirot, Nishopur, Ray va Jibol kabi markazlarga safar qiladi. U yillik izlanishlar davomida to'plagan bilimlari asosida o'zining buyuk asarlarini yaratishga kirishadi. Imom Buxoriy “Al-Jome' al-Kabiyr” (“Katta to'plan”), “Xalq af'ol al-'ibod” (“Alloh bandalarining amallari”), “Kitob al-Favoid” (“Foydali narsalar to'g'risida kitob”), “Kitob al-Xiba” (“Xayriya haqida kitob”), “Al-Musnad al-Kabiyr”, “At-Tafsir al-Kabiyr” (“Katta tafsir”), “Tafsir al-Qur'on” (“Qur'on tafsiri”) kabi mashhur asarlarni yaratgan. Ammo uning eng mashhur asari — “Al-Jome' as-Sahih” bo'lib, to'liq nomi “Al-Jome' al-musnad as-sahih al-muxtasar min umuri Rasululloh (s.a.v.) va sunanihi va ayyamihi”dir. Bu asar “Sahih al-Buxoriy” nomi bilan mashhur. Ulamolar bu kitobni Qur'oni Karimdan keyingi eng ishonchli kitob deb e'tirof etganlar. Buxoriy ilmiy faoliyati davomida 600 mingga yaqin



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



hadis to'plagan, ularning ichidan 7275 tasini sahih (ishonchli) deb topib, "Al-Jome' as-Sahih"ga kiritgan. Ushbu to'plam to'rt jilddan iborat bo'lib, islom olamidagi eng ishonchli hadis kitobi hisoblanadi. Unda fiqh, oila, nikoh, meros, ilm-ma'rifat, imon, e'tiqod, axloq, ta'lim-tarbiya kabi mavzular yoritilgan. Buxoriy ilm olish jarayonida o'z davrining yetuk ulamolari — al-Doxiliy, Muhammad ibn Yusuf al-Poykandiy, Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy, Muhammad ibn Salom al-Poykandiylardan saboq olgan. Ustozlardan olgan bilim va o'z iste'dodi tufayli Buxoriy dunyo tan olgan muhaddis darajasiga yetgan. Hatto ko'plab podshohlar o'z farzandlari Buxoriydek ustozdan ta'lim olishini istagan. Imom Buxoriy umrining so'nggi yillarida tinch hayot kechirib, o'zi tug'ilib o'sgan yurtida vafot etishni istagan. Biroq o'sha paytda Buxoro voliysi Xolid ibn Ahmad Zo'hliy undan o'z farzandlariga hadisdan alohida dars berishni talab qiladi. Imom Buxoriy esa bu taklifni rad etadi. Shundan so'ng voliy uni Buxorodan chiqib ketishga majbur qiladi. U umrining oxirgi kunlarini Samarqand yaqinidagi Hartang qishlog'ida o'tkazgan. Imom Buxoriy Ramazon hayitiga o'tar kechasi, xufton namozi vaqtida vafot etgan. 256-hijriy yilning (870-yil 1-sentyabr) birinchi shavvol kuni Hartangda dafn etilgan. Ko'plab rivoyatlarga ko'ra, Buxoriyning vafotidan keyin ancha muddat uning qabri atrofidan mushki anbar hidi kelib turgangan. Imom al-Buxoriy boshlab bergan sharaflı yo'lnı keyinchalik shogirdlari davom ettiradi. Yana bir islom olamida o'chmas iz qoldirgan Imom at-Termiziy o'zining juda ko'p asarlarida Buxoriyning o'zining ustozı ekanligini ta'kidlab o'tadi. Imom at-Termiziy Buxoriy haqida hatto bir asarida "Dunyo ahli Imom Buxoriydek odamni ko'rmagan. U hadis ilmining bayrog'idır va bizning ustozimizdir"-deb sharaflagan. Bu fikr shundan dalolat beradiki, Imom Buxoriy o'z davrida nafaqat muhaddislar orasida, hatto ilm ahli orasida ham tengsiz mavqega ega bo'lgan. At-Termiziyning bu ta'rifida shogirdning ustozga bo'lgan muhabbati, ilmga hurmati va munosib e'tirofi aks etadi. Imom Ahmad ibn Hanbal Imom Buxoriyning juda yuqori baholagan "Xurosonda Buxoriyning o'xshashi yo'q. Hadisda undan kuchliroq, undan ishomchliroq odamni ko'rmadim"-deb ta'kidlagan. Bu fikr Buxoriyning ilmiy mavqei qanday baland bo'lganini ko'rsatadi. Ahmad ibn Hanbal-o'z davrida hadis ilmining eng mashhur ustozlaridan hisoblangan, shunday bo'lsa ham Buxoriyga chuqur hurmat bilan qaragan. Buyuk Buxoriy o'zidan qoldirgan boy ilmiy merosi bilan nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham islom olamida e'tirof etilmoqda. Uning asarlari hanuzgacha ko'plab madrasalarda asosiy darslik sifatida o'qitilmoqda. Uning asarlaridagi g'oyalar o'sib kelayotgan yosh-avlodning vatanga, ota-onaga muhabbatli, halol, adolat yo'lida og'may yurishga undaydigan inson bo'lib shakllanishga chorlaydi. Yillar davomida qilingan mehnatlar va yaratilgan buyuk asarlar Imom Buxoriyning xotirasini abadiylashtirishga zamin yaratdi. Mustaqillik yillarida Buxoriyning shaxsini o'rganish ishlari chuqur olib borildi. Shu yillarda Buxoriyga e'tirof va e'tibor kuchaydi. Uning xotirasini abadiylashtirish maqsadida juda ko'p islohatlar amalga oshirildi. 1998-yilda Imom Buxoriyning 1225 yillik yubileyi munosabati bilan Samarqand viloyatining Hartang qishlog'ida joylashgan Imom al-Buxoriy majmuasi to'liq qayta qurildi. Shuningdek, Imom al-Buxoriy nomidagi Toshkent Islom instituti (1971) hamda Imom al-Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi (Samarqand,



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



2017) tashkil etildi. UNESCO tomonidan Imom al-Buxoriy yubileyi xalqaro miqyosda nishonlandi (1998-yil). Eng e'tiborli jihati — Samarqandda joylashgan bu majmua 2025-yilda qayta rekonstruksiya qilinib, yangidan ta'mirlangani, Imom Buxoriyning bizning yurtimizda qanchalik yuksak hurmat va mavqega ega ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Al-Jome' as-Sahih. — Qohira: Dor al-Fikr nashriyoti, 1981.
2. Karimov, I. A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Aliev, H. Imom al-Buxoriy va uning hadis ilmidagi o'rni. — Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2016.
4. Imom al-Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi materiallari. — Samarqand, 2018.
5. Saidov, A. Hadis ilmi va uning manbalari. — Toshkent: Movarounnahr nashriyoti, 2015.
6. UNESCO. Imam al-Bukhari: A universal figure of Islamic heritage. — Paris: UNESCO Publishing, 1998.
7. Rashidov, S. Buyuk muhaddis — Imom al-Buxoriy hayoti va merosi. — Samarqand: Zarafshon, 2020
8. Mansur Abdulaziz. "Imom al-Buxoriy". — Toshkent: Movarounnahr nashriyoti, 2017.
9. Komilov Xayrulla. "Imom al-Buxoriy: hayoti va ilmiy merosi". — Toshkent: O'zbekiston, 2015.
10. Sirojiddinov Shamsiddin. "Hadis ilmi tarixi". — Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2019.
11. "Sahihi Buxoriydan hikmatlar". — Toshkent: Movarounnahr, 2018.
12. "Hadis va hayot" — Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. — Toshkent: Hilol-nashr, 2012

